

2/2022,
mart-aprel
(№ 00058)



OLIV TA`LIM XIZMATLARINI MEHNAT BOZORI BILAN INTEGRATSIYALASHUVUNI TAKOMILLASHTIRISH

Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Makroiqtisodiyot kafedarsi dotsenti v.b., PhD. Toshkent, O'zbekiston. hayrillo0606@mail.ru

ORSID: 0000-0001-5403-9400. SPIN-8101-5325

Article DOI: 10.55439/EIT/vol10_iss2/a21

Annotatsiya

Maqolada ish beruvchilar tomonidan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi zarurligi xalqaro ekspertlar tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalariga asoslangan holda tahlil qilingan. Ish beruvchilar tomonidan yaratilayotgan mehnat sharoitlari holati o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bazaviy kasbiy malakalari tarkibi va tavsifi yoritib berilgan hamda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning rivojlanish holati tahlil etilgan. Oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori bilan integratsiyalashuvini takomillashtirish mexanizmi bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim xizmatlari, mehnat bozori, ish beruvchi, kasbiy bilim, kasbiy ko'nikma.

Аннотация

В статье анализируется потребность работодателей в профессиональных знаниях, навыках и умениях выпускников высших учебных заведений на основе опросов, проведенных международными экспертами. Изучено состояние условий труда, создаваемых работодателями. Также освещены структура и описание основных профессиональных навыков выпускников высших учебных заведений нашей страны, а также проанализировано состояние развития выпускников высших учебных заведений. Разработаны научные предложения и рекомендации по механизму совершенствования интеграции услуг высшего образования с рынком труда.

Ключевые слова: высшее образование, образовательные услуги, рынок труда, работодатель, профессиональные знания, профессиональные навыки.

Abstract

The article analyzes the need of employers for professional knowledge, skills and abilities of graduates of higher educational institutions based on surveys conducted by international experts. The state of working conditions created by employers has been studied. The structure and description of the main professional skills of graduates of higher educational institutions of our country are also highlighted, and the state of development of graduates of higher educational institutions is analyzed. Scientific proposals and recommendations on the mechanism for improving the integration of higher education services with the labor market have been developed.

Key words: higher education, educational services, labor market, employer, professional knowledge, professional skills.

Kirish

Oliy ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi va uni infratuzilmasini barqaror sur'atlarda rivojlanishi, oliy ta'lim tizimini tijoratlashtirish, oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozorining o'zaro aloqasi, ta'lim sifati va uning rivojlanish mexanizmini takomillashtirishning metodologik-uslubiy jihatlari bo'yicha muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda jarayonida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashuvi mehnat bozorini rivojlanishini ta'minlab, ish kuchini tayyorgarligi darajasi, sifati va kasbiy malaka ko'nikmalarini tarkibiga bo'lgan talabni o'zgartirib, inson kapitalini takror ishlab chiqarish tizimini isloh etishni talab etadi.

Jahonda globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashuvi mamlakatlar iqtisodiyotidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy standartlarni tobora takomillashuviga olib keldi. Jumladan, mehnat bozorida ish beruvchilar tomonidan yuqori malakali kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablari ham ortdi. Ushbu jarayonlar jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida biznes yuritish, korxonalar faoliyatini amalga oshirishning tashkiliy jihatdan mukammallashtirib bormoqda. Natijada oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonlariga ish beruvchilar tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy va iqtisodiy standartlar takomillashdi. Globallashuv jarayonlarining jahonda keng tarqalishining asosiy omillaridan biri bu internet tarmog'i hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "... bugungi kundagi 815 ta yo'nalishning 55 foizi mehnat bozori talablariga javob bermaydi. o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta'minlash va talabning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratish"[1] kabi vazifalar turganligini ta'kidlab o'tgan. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichida oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozori o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishni tadqiq etish dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy muammo hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Iqtisodchi olimlar tomonidan ta'lim tizimini rivojlanishi bo'yicha turli qarashlar mavjud. Jumladan, biri "ta'lim rivojlanish va hayot kechirishning asosiy ijtimoiy-genetik mexanizmiga aylanadi"[13] deb hisoblasalar ikkinchisi "ta'limga bo'lgan bunday yondoshuvning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ta'lim kasbiy faoliyat va hayot uchun tayyorlash institui sifati emas, balki hayotning o'zini tashkil etish instituti sifatida qarash kerak"[2] desa uchinjisi "mehnat bozorini segmentlash nazariyasiga muvofiq olib borish zarur"[3] deb hisoblaydilar.

Bir qator Rossiyalik iqtisodchi olimlar O.A. Podolskiy, V.A. Pogojina[4], E.Z. Zyer [5], I.Zimnyaya[6], I.V. Magera[7], A.I. Kovaleva[8], YE. Ya. Kuzmin[9]lar ish buruvchilar nazarida bitiruvchilarga qanday qobiliyatlar kerakligi va zarurli yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borganlar.

XXI asrning ilk yillaridan boshlab, Jahon banki ekspertlari tomonidan "Jobs & Skills (Kasblar va Ko'nikmalar)" mavzusida global darajada tadqiqotlar muntazam amalga oshirilib kelinmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, XXI asrda mehnat bozorida ish beruvchi tomonidan ishchi kuchining kognitiv, ijtimoiy-xissiy, ilmiy-texnik va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurligi isbotlangan. Jumladan, ishchi kuchining yuqorida keltirib o'tilgan sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirish orqali mamlakatda samarali bandlikni ta'minlash, uning global raqobatbardoshligi ko'rsatkichini yaxshilash, barqaror iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishishi bilan birgalikda, mehnat bozorida ishchi kuchining tarkibiy jihatdan takomillashuvi ta'minlanadi[10].

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqotda oliy ma'lumotli mutaxassislariga qo'yilayotgan malaka qobiliyatlari, kasbiy qobiliyatlari va ish beruvchilar tomonidan ularning qobiliyatlariga qo'yilayotgan talablarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi bo'lib, ilmiy maqolalari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, iqtisodchi

olimlarning oliy ta’lim va mehnat bozori o’rtasida munosabatlarni o’rganish yuzasidan olib borgan izlanishlari, shuningdek olimlar va shu soha vakillarining fikr-mulohazalari hisoblanadi. statistik, empirik tahlil qilish asosida mavjud muammolar aniqlab olingan hamda oliy ta’lim va mehnat bozorini bog’liqligini takomillashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot jarayonida mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, statistik tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Tahlillarga ko’ra, ishchi kuchining kasbiy mahoratlarini oshirishda unga yetarli darajada kasbiy bilim berish lozim bo’ladi. Bilim bu turli manbalar orqali tegishli sohaga oid bo’lgan ma’lumotlarni o’zlashtirish hisobiga shakllangan axborot hisoblanib, oliy o’quv yurtlarida o’zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda yuqori saviyada qo’llay olgan talabalarning ishchi kuchi sifati yuqori darajada baholanadi[11].


Xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko’ra, ish beruvchilar tomonidan tegishli lavozimlarga ishga joylashish uchun tanlovda ishtirok etayotgan nomzodlarning belgilangan lavozimlar bo’yicha kasbiy malakalari ortib bormoqda. Bunda oliy ta’lim xizmatlari bilan ish beruvchilar o’rtasidagi o’zaro hamkorlik aloqalarining samarali yo’lga qo’yilganligi ushbu ijobiy natijalarga erishishning muhim sharti sifatida baholanmoqda. Jumladan, 2020 yilda nozodlarning 95 foizi tegishli lavozim bo’yicha kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lmagan bo’lsa, ushbu ko’rsatkich 2022 yilda 91 foizga teng bo’ldi (1-rasm).



1-rasm. Jahonda oliy ma’lumotli nomzodlarning tegishli lavozimlar bo’yicha ish beruvchilar talablariga mos kelmasligi holatlari[11], foizda

Jahonda yirik 3 000 ish beruvchi korxonalar o’rtasida o’tkazilgan so’rovnoma natijalariga ko’ra, tegishli lavozimlar bo’yicha e’lon qilingan tanlovlarda o’z nomzodlarini qo’ygan oliy ma’lumotli kadrlarning 27 foizi o’zi uchun g’amxo’rlik qiladigan mehnat sharoitini ta’minlanishini hohlaydi. Shu bilan birgalikda kasbiy malakasi talab darajasida bo’lishiga qaramay, nomzodlarning har beshtadan faqat bittasigina o’z kasbiy malakasini oshirish va uni rivojlantirishni istaydi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ishga qabul qilingan nomzodlarning 29 foizi yetarli darajada kasbiy malakaga ega bo’lmay, ish beruvchilarning 70 foizi ularning kasbiy malakalarini oshirishga tayyor ekanligini bildirgan[11].

Tahlillar ko’rsatishicha, jahonda aksariyat oliy ma’lumotli kadrlar ish beruvchilar tomonidan ularga taklif etilayotgan bo’sh ish o’rinlari, imtiyozlar va ishga qabul qilish jarayonidagi beriladigan turli va’dalarga shubha bilan qarashadi. Ushbu holat ayniqsa, mehnat bozoriga endigina kirib kelayotgan ishchi kuchi o’rtasida o’rta yoshli ishchi kuchiga nisbatan ko’p kuzatiladi (2-rasm).



2-rasm. Jahon mehnat bozorida ish beruvchilar tomonidan yaratiladigan mehnat sharoitlariga shubha bilan qarovchi nomzodlar[11], foizda

Jumladan, jahondagi yirik, nufuzli ish beruvchilar bugungi kunda yuqori yuqori malakali ishchi kuchiga boʻlgan ehtiyojlarini qondirishda ularning oʻzlari faol darajada oliy maʼlumotli kadrlarni izlay boshladilar. Soʻrovnoma natijalariga koʻra, ish beruvchilar tomonidan quyidagi usullar yuqori malakali kadrlarni saralab olishning eng samarali usullari sifatida qayd etilgan:

- shaxsiy aloqaga kirishish (34 foiz);
- ommaviy axborot vositalari orqali eʼlon berish (29 foiz);
- internet tarmogʻi orqali nomzodlarning shaxsiy profillarini qiyosiy taqqoslash (28 foiz);
- internet tarmogʻi, kompaniyaning web-sayti, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali eʼlonlar berish (27 foiz);
- bandlikka koʻmaklashish markazlarida ishsizlik yoki oʻz band boʻla turib yangi ish qidirayotgan boʻyicha roʻyhatdan oʻtgan mehnat resurslarining maʼlumotlarini qiyosiy taqqoslash (24 foiz)[11].

Taniqli shaxs, amerikalik jamoat arbobi, “Microsoft” kompaniyasi asoschisi Bill Geytsning taʼlim sifati va uning mehnat bozori talablariga mosligini tadqiq etishga bagʻishlangan izlanishlarida quyidagilarga urgʻu beriladi: bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiy etayotgan jamiyat uchun masofaviy taʼlim – eng samarali taʼlim hisoblanib, bunda ayniqsa, chet tillarini internet orqali (oʻquv videoyozuvlari, test savollari, sinxron avtotarjimonlar asosida) fanlarni masofadan oʻrganish ham iqtisodiy, ham vaqt tejalishi jihatidan foydali ekanligini bayon etadi.


Bugungi kunda mamlakatimiz oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy bilim va koʻnikmalarini shakllantirishda iqtisodiyotning har qanday sohasi uchun xos boʻlgan “bazaviy malakalar”ini shakllantirishga ustuvorlik qaratilmoqda (1-jadval). Mamlakatimizda aholiga koʻrsatilayotgan oliy taʼlim xizmatlari bilan mehnat bozori oʻrtasidagi vertikal va gorizontal nomutanosibliklarning mavjudligiga qaramay, oliy taʼlim isteʼmolchilarga umr davomida yangi bilimlarni oʻzlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan hisoblanadi. Bu esa bazaviy kasbiy malakaga ega boʻlgan bitiruvchilarning amaliyot jarayonlarida oʻzlari uchun yangi bilimlarni qisqa muddatlarda oʻzlashtirish imkoniyatlarini oshirish bilan birgalikda, mehnat bozorida raqobatbardoshlik koʻrsatkichlarini oshirish imkoniyatini beradi. Shuni ham taʼkidlash joizki, mamlakatimizda ish beruvchilar tomonidan oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilarini ishga yollash jarayonida aynan ularning bazaviy malakalarini baholashga eʼtibor qaratiladi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bazaviy kasbiy malakalari tarkibi va ularning tavsiflanishi

Kasbiy malaka	Kasbiy malakaning ahamiyati
Diqqat-e’tiborni boshqarish va konsentratsiya	Murakkab texnika va texnologiyalarni boshqarish bilan birgalikda yangi axborotlarni o‘zlashtirish, ularni uzatishda yordam beradi
O‘zini tuta bilish (hissiyotni boshqarish)	Turli holatlarda o‘zini to‘g‘ri tuta bilish, o‘z hissiyatini boshqarish, jahlg'a berilmaslik, og‘ir-vazminlik bilan vaziyatni hal etish, muloqotga kirishish samaradorligini oshirishda yordam beradi
Raqamli savodxonlik	Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish sharoitida muhim ahamiyat kasb etib, bugungi kunda bu turdagi savodxonlik insondan yozish o‘qishni bilish bo‘yicha savodxonlik kabi talab etiladi. Chunki har qanday ishlab chiqarish jarayonlari bugungi kunda texnologik jihatdan raqamlashtirib borilmoqda.
Kreativtilik, ijodkorlik	Insonda noodativ fikrlar imkoniyatlarini kengaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatizatsiyalash, jumladan, texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.
O‘rganish qobiliyati (mustaqil o‘rganish)	Insonning umri davomida yangi bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa yangi kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish bilan birgalikda, yangi ko‘nikma va malakalarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan


So‘nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini ta’minlash, jumladan, aholini oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, talim sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilayotganligi barchamizga ma’lum. Tahlillarga ko‘ra, 2008-2021 yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim bitiruvchilari soni siklik tendensiyaga ega bo‘lib, 2008 yilda 82,9 ming bitiruvchilar oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2021 yilda 83,9 mingga teng bo‘ldi. Ushbu holat o‘rganilayotgan davrda oliy ta’lim muassasalari qabul kvotasining keskin pasayib ketishi bilan izohlanadi (3-rasm).



3-rasm. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari soni, ming kishida [12].

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda keyingi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim xizmatlari bilan mehnat bozori o‘rtasidagi interatsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirish orqali bitiruvchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq deb

hisoblaymiz. Bunda oliy ta’lim muassasalarining mehnat bozoriga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish mexanizmiga asoslanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (4-rasm).



4-rasm. Oliy ta’lim xizmatlari bilan mehnat bozori integratsiyalashuvini chuqurlashtirish mexanizmi¹

Taklif etilayotgan oliy ta’lim xizmatlari bilan mehnat bozori integratsiyalashuvini chuqurlashtirish mexanizmi oliy ta’lim muassasalarining marketing bo’limlari bilan ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarning kadrlar bilan ishlash bo’limlarining funktsiya va vazifalarini bandlikka ko’maklashish markazlari orqali o’zaro muvofiqlashtirishga asoslanadi. Bunda korxonalar yoki tashkilotning kadrlar bilan ishlash bo’limi ish beruvchining faoliyati yo’nalishidan kelib chiqqan holda kadrlarning kasbiy bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablarni ishlab chiqishi va muntazam ravishda (masalan, har kvartal, har yarim yil yoki har yili) ularni takomillashtirib borishi lozim bo’ladi. Ishlab chiqilgan lavozim bo’yicha nomzadlardan talab etiladigan kasbiy bilim, ko’nikma va malakalar ish beruvchining rasmiy web-sayti (agarda mavjud bo’lsa) va bandlikka ko’maklashish markazlariga taqdim etilishi lozim bo’ladi. Jumladan, ish beruvchining biron bir oliy ta’lim muassasasi bilan o’zaro hamkorlik aloqalari yo’lga qo’yilgan bo’lsa, shartnomada ko’rsatilgan bitiruvchilarni ishga qabul qilish punkti bo’yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarga qo’yiladigan talabnoma oliy ta’lim muassasasi rahbariyatiga taqdim etilishi zarur bo’ladi.

Xulosa va takliflar

Oliy ta’lim muassasalarining marketing bo’limlari mehnat bozorida ish beruvchilarning kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarga qo’yiladigan talabnomalarini muntazam ravishda tadqiq etib borishi lozim bo’ladi. Bunda ish beruvchilar tomonidan mehnat birjalariga taqdim etilgan turli lavozimlar kesimida kadrlarning kasbiy bilim, ko’nikma va malakalari bo’yicha ishlab chiqilgan talabnomalardan foydalanish mehnat bozorida uzoq muddatli, ko’p xarajat talab qiluvchi marketing tadqiqotlarini o’tkazish zaruriyatini oldini olib, qisqa muddatlarda oliy ta’lim muassasalarida o’qitilayotgan kasb yo’nalishlari va mutaxassisliklari bo’yicha zaruriy bilim berish yo’nalishlarini aniqlashga erishiladi.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

Fikrimizcha, keyingi yillarda mamlakatimizda taklif etilayotgan oliy ta’lim xizmatlari bilan mehnat bozori integratsiyalashuvini chuqurlashtirish mexanizmini amaliyotga joriy etilishi, mehnat bozorida yuqori malakali ishchi kuchiga bo’lgan talabni sifatli ishchi kuchi bilan ta’minlash imkonini beradi. Jumladan, respublika mehnat bozorida ishchi kuchi sifati, tegishli lavozimlar bo’yicha kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarni aniqlashga qaratilgan ko’p vaqt va xarajat talab qiluvchi tadqiqotlarni o’tkazish zaruriyatini kamaytirib, qisqa muddatli davrda mehnat bozorini yuqori malakali, sifatli ishchi kuchi bilan ta’minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 16 iyun kuni oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/4424>
2. Gordiyenko A.A. Sotsiokulturnye osnovaniya evolyusii obrazovaniya budущего // *Sovremennoye obrazovaniye: problemy i perspektivy.* – 1995. – S. 5-19.
3. Doeringer P., Piore M., *Internal Labour Markets and Manpower Analyses* Lexington, Mass, 1971; Standing G. *Unemployment and Labour Market Flexibility.* ILO, - Geneva, 1986. – P. 19-20.
4. О. А. Подольский, В. А. Погожина. Ключевые компетенции выпускников и молодых специалистов при приеме на работу. “Научное обозрение: гуманитарные исследования” — 1/2016, 96-103 с
5. Зеер Э. З. Идентификация универсальных компетенций выпускников работодателем // *Высшее образование в России.* – 2007. – № 11. – С. 39–45.
6. Зимняя И. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования // *Высшее образование сегодня.* – 2003. – № 5. – С. 34–42.
7. Магера И. В. Проблема молодежной занятости и безработицы в контексте несоответствия рынка образовательных услуг и рынка труда // *Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы.* – 2012. – № 6. – С. 2–8.
8. Ковалева А. И. Профессиональная мобильность // *Знание. Понимание. Умение.* – 2012. – № 1. – С. 298–299.
9. Кузьмин Е. Я. Рынок труда и профессий для молодых специалистов: проблемы и пути их решения // *Высшее образование в России.* – 2012. – № 12. – С. 138–141.
10. Skills Development. The World Bank. <https://www.worldbank.org/en/topic/skillsdevelopment>
11. *Future of Work 2022 global report.* Monster. 2022. p. 46. <https://media.monster.com/marketing/2022/The-Future-of-Work-2022-Global-Report.pdf>
12. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.
13. Subetto A.I. *manifest sistemogeneticheskogo i siklicheskogo mirovozzreniya i Kreativnoy Ontologii / A.I.Subetto - Tolyati, 1994. – S. 30.*